

PSIXOLOGIYADA IQLIM O‘ZGARISHLAR MASALALARI

G.K. Jumamuratova

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar
instituti psixologi*

Annatosiya. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq psixologik muammolarni ilmiy o‘rganilishi bayon etilgan. Shaxs psixologiyasi iqlim o‘zgarishlarga psixologik tayyorgarligi muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Psixologiya, iqlim o‘zgarishlar, shaxs rivojlanishi, atrof-muhit ekologiyasi, ekologik tanglik, tabiat bilan bo‘ladigan munosabatlar.

So‘nggi yillarda iqlimning keskin o‘zgarishi, sahrolarning kengayishi, cho‘llanish va yer degradatsiyasi, atmosferaning zararlanishi, suv resurslarining ifloslanishi va tanqisligi, o‘rmonlar va bioxilma-xillikning kamayishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolarga aylanib, iqlim o‘zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda.

Darhaqiqat, sayyorani global isishning yangi to‘lqini kutmoqda, uning oqibatlarini turli mintaqalar aholisi sezmoqdi. Yer sayyorasining harorati 1 °C ga oshgan. Bu raqam sezilarli emasdek ko‘rinishi mumkin, ammo unga sayyora yuzasidagi o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida qaraydigan bo‘lsak, o‘zgarish katta ekanligini, oqibatda muzliklar eriyotganini va dengizlar darajasining keskin ko‘tarilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to‘xtamasa, olimlar Yer sayyorasi o‘rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi.

Yer sayyorasidagi iqlimning keskin o‘zgarishi 1896 yilda issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi sababli sayyoradagi haroratning oshishi haqida ilk bor bashorat qilingan. Hozirgi kunga kelib Olimlarning ta’kidlashicha, yaqin 25-30 yil ichida iqlim yanada issiqlashadi va ob-havo sharoiti keskinlashadi. Iqlim o‘zgarishi nafaqat haroratning oshishi bilan bog‘liq. Biz 2023 yilda ko‘rgan narsalarimiz-okeanning misli ko‘rilmagan isishi, muzliklarning chekinishi va Antarktika dengiz muzining yo‘qolishi-alohida tashvish uyg‘otadi." Dunyo bo‘ylab oziq-ovqat tanqisligini boshdan kechirayotgan odamlar soni juda ko‘p. Uchta asosiy issiqxona gazlari – karbonat angidrid, metan va azot oksidining kuzatilgan konsentratsiyasi 202-yilda rekord darajaga yetdi. Issiqlik to‘lqinlari,

toshqinlar, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari va tez o'sib borayotgan tropik siklonlar azob - uqubat va betartiblikni keltirib chiqardi. Millionlab odamlarning kundalik hayoti buzildi va milliardlab dollar iqtisodiy zarar keltirdi, deyiladi WMO hisobotida "2023 yilda Global iqlim holati". WMO hisobotida 2023-yil rekord darajadagi eng issiq yil bo'lganligi va global o'rtacha tashqi harorati 1,45 °C sanoatdan oldingi bazadan oshib ketganligi tasdiqlangan. Bu rekord darajadagi eng issiq o'n yillik davr edi.

Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh kotibi António Guterriş o'z nutqida "Barcha ko'rsatkichlar signalni eshitadi. Ba'zi qadriyatlar shunchaki rekordlarni buzmaydi, ular shunchaki ularni ezib tashlashadi va iqlim o'zgarishlari esa tezlashmoqda" dedi. Insoniyat uzoq vaqt davomida iqlim o'zgarishlariga hech qanday chora ko'rmadi, shuning uchun olimlarning fikriga ko'ra, hozirda vaziyat umid baxsh etmaydi. Ammo yer yuzida qazib olinadigan yoqilg'i bor ekan, harakat qilish uchun hali ham kech emas. Atmosferaning qizishi faqat issiqxona gazlari chiqindilari nolga tushirilganidagina, potensial boshqarilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichga keladi. Ammo mutaxassislar iqlim o'zgarishining eng yomon oqibatlarini oldini olish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish kerak, degan fikrda. «Agar insonning iqlimga ta'siri bo'lmaganida, dunyoda haroratning bunday ko'tarilishi uchun sharoit juda kichik bo'lar edi», – deyiladi tadqiqotda.

BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish JST va Copernicus ma'lumotlarini sharhlar ekan, u o'z nutqida “Iqlim o'zgarishi allaqachon bizga ta'sirini ko'rsatib kelmoqda, bu dahshatli, bu hali boshlanishi”, – deya ta'kidladi. «Global isish davri tugadi, global qaynash davri kirib keldi», – deya ma'lum qildi BMT rahbari.

«Rekord haroratlar global haroratning keskin o'sishi tendensiyasining bir qismidir. Haroratning ko'tarilishining asosiy sababi antropogen chiqindilar», – deydi Karlo Buontempo.

Bugungi kunda hammamizga ma'lumki, odamlarning ko'pchiligi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'zidagi o'zgarishlarni ba'zida sezmayotgandek. Misol uchun, dengiz sathining ko'tarilishi sababli «Sendi» to'foni vaqtida Nyu-York va Nyu-Jersining 83 000 ga yaqin aholisi zarar ko'rdi, olimlarning fikricha, barqaror iqlim sharoitida bu holat sodir bo'lmagan bo'lar edi. O'n minglab odamlar allaqachon global isish tufayli kuchaygan issiqlik to'lqinlari oqibatida nobud bo'lmoqda. Dunyo bo'ylab siyosiy vaziyatni beqarorlashtirgan qochqinlar

oqimi qisman iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq. Albatta, boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarda bo‘lgani kabi birinchi va eng og‘ir zarbani kambag‘al qatlamdagi aholi qabul qilib oladi. Xorij olimlari tadqiqotlarida o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishi haqidagi tashvish ayollar, kichik aholi punktlari aholisi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy holati past odamlar uchun ko‘proq xosdir. Uzoq yillar davomida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning yuqori harorat sharoitida asabiylashishi tajovuzkor xatti-harakatlarga moyillik ortadi degan ilmiy fikrlarni bermoqda.

Bizning nuqtai nazarimizdan, iqlim o‘zgarishining asosiy psixologik ta’sirini ikkita toifaga bo‘lish mumkin:

birinchidan, tashvish va depressiya, shuningdek kayfiyatning oshishi;

ikkinchidan, salbiy geofizik omillarning bevosita yoki bilvosita ta’siri bilan bog‘liq kognitiv va affektiv jarayonlarning o‘zgarishi.

Shu jumladan kognitiv qobiliyatlarning pasayishi, yuqori harorat, havoning ifloslanishi va boshqada kabi omillar ta’sirida kasalliklarning ko‘payishi, impulsivlik va tajovuzkor xatti-harakatlar ortib borishi bilan belgilanmoqda.

Atrof-muhit iqlim o‘zgarishining turli xil psixologik ta’siri ularni baholash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniqlash va ushbu sohadagi fanlararo tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish zarur. Ekologik tushkunlik va tabiiy ofatlarning psixologik oqibatlari, qisqa muddatda iqlim o‘zgarishining psixologik ta’siri, kelajak haqida tashvishlanishning kuchayishi, tabiiy ofatlar ta’siri tufayli qayg‘u, shuningdek, tanish muhitni yo‘qotish haqidagi depressiya bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishlarga oid ishlar, chora-tadbirlar ya’ni iqlim o‘zgarishlarga qarshi kurashish va ularga moslashish masalalari, ekosistema parametrlarini muhofaza qilishi hamda tabiiy resurslarni samarali boshqarish va muvozanatni saqlashga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotganining guvohi bo‘ldik. Iqlim o‘zgarishlarining ta’sirini kamaytirishga qaratilgan texnologik innovatsiyalarni joriy etish masalalari, yangicha insoniy yondashuvlarning mexanizmlarini joriy etishi va boshqa ijtimoiy sohalarda iqlim o‘zgarishlariga moslashish strategiyalarini ishlab chiqishiga kompleks yondashuvlari zarur, barcha ta’lim muassasalarida iqlim o‘zgarishlariga oid bilimlarni berishi ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кокошин С.Н., Влияние погодных условий на физическое и психоэмоциональное состояние человека. г. Тюмень статья поступила 17.04.2023
2. Крейг Anderson. [www.kp.ru: https://www.kp.ru/daily/28320/4463518/](https://www.kp.ru/daily/28320/4463518/)
3. Burke, Susie E. L.; Sanson, Ann V.; Van Hoorn, Judith (May 2018). "The Psychological Effects of Climate Change on Children". *Current Psychiatry Reports*. 20 (5): 35.